

G'AFUR G'ULOMNING "VAQT" SHE'RI IJODIY TAHLILI

Sulkhiddinova Dilorom Khuseynovna

Student of Tashkent State University of Law

ORCID:0000-0001-9802-0699

E-mail: Sulhiddinovadilorom@gmail.com

O'zbekiston xalq shoiri hamda akademigi G'afur G'ulom 19- sentabr 1945-yilda yozgan. Shoir ushbu she'rni jiyani bo'lmish mayor Xamidulla Xusan o'g'liga atab yozgan. Shoir she'ri davomida vaqtning naqadar ulug' me'mat ekanligini tushuntirishga harakat qiladi. She'r quyidagicha boshlanadi:

**G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olgulik muddat –
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.**

Ushbu yuqoridagi to'rtlik bilan she'rni boshlar ekan shoir, avvalo, vaqtni quyidagi timsollar orqali tushuntirishga harakat qiladi: bir gul unib, go'zal g'uncha misol ochilishi uchun ketgan fursatni shoir kapalak umriga qiyos etadi. Ma'lumki, kapalak umri qisqa bo'ladi, ya'ni kapalaklar uzog'I bilan 3-5 kun umr ko'rishadi. Shoir yuqoridagi misol orqali umrning tez o'tishi, vaqtning g'animat ekanligini nohoyatda go'zal misollar bilan ta'riflagan. Keyingi jumlagi nazar tashlaydigan bo'lsak, Ba'zida insonning bir marotaba nafas olishi uchun ketgan muddat ming yulduz (shoir bu orqali insonlar demoqchi) so'nishi uchun yetgulik deya yana bir bor vaqt tez o'tib ketishi, umr daftarimizni yaxshi sahifalar ila bezashimiz darkorligiga yana bir bor eslatma qiladi. Keyingi to'rtlikka nazar tashlasak:

**Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor;
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam-qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.**

Ushbu jumlaning tahlil qiladigan bo'lsak, qisqa muddatda tug'ilib, umrini boqiyga muhrlaydigan insonlar ko'p. Ularni qisqa muddat yashadi deya olmaymiz, chunki ular xotiralarda mangu yashaydi. Shoir yuqoridagi jumla orqali aynan shunday insonlarni eslab o'tgandir. Insonning qancha umr ko'rgani emas, balki, qanday umr ko'rgani muhimroqdir. G'afur G'ulom ham aynan bu she'r orqali shunga e'tibor qaratishni

lozim topadi. Keyingi jumlar esa inson ko'z ochib yumushi uchun ketgan 1 soniyalik muddatda dunyoda qancha voqealar sodir bo'lishi, qanchalab insonlar tug'ilishi-yu, yana qanchalab insonlar bu foni dunyoni tark etishi haqida eslatib o'tgan. Bir lahza mazmuni bir butun bahor- ushbu jumla orqali shoir umrimiz davomida bir lahzalik tuygan baxtimiz, butun umrimiz uchun kifoya qilishi mumkinligini aytib o'tgan. Bahor so'zi orqali shoir qaysidir ma'noda yoshlikni, yoshlikdagi shijoat, kuch-qudratni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas.

**Bir onning bahosin o'lchamoq uchun
Oltindan tarozi, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayuhannos ovozi.**

Yuqoridagi jumlar vaqtning bahosi haqida desak adashmaymiz. Shoir yuqoridagi jumlasini orqali bir on, bir soniyaning qimmatini o'lchash, balki, qadrini bilish, sotib olish uchun xoh oltindan tarozi yarasak ham, xoh olmosdan tosh yarasak ham ozligini uqtirgan. Darhaqiqat, bir soniyalik umrimiz ba'zida bir umr eslash imkoniyatini, baxtini beradi. Bu tuyg'u hamda hislarni qayta takrorlashning ham, vaqtni ortga qaytarishning ham iloji yo'q. Vaqt- misli oqar daryo. Oqaveradi, uning irmoqlarida qanchadan qancha insonlarning xotiralari, hislari, baxt bilan bir qatorda dardlari va oh-fig'onlari mavjlanib turadi. Keyingi jumlalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Sekundlar, sekundlar ortidan soatlar hamda soatlar ortidan kunlar, shu tariqa umrimiz o'taveradi. Shoir nurlar qadami-la chopgan sekund deya vaqtning tez o'tib ketishini juda go'zal taqqoslash orqali ko'rsatib o'tgan. Barini tutolmas ayuhannos ovozi- ya'ni sekundlar, soatlar, umr o'tib ketguvchidir, uni xoh baqirib, xoh chaqirib ham tutib qola olmaymiz. Jaloliddin Rumi aytgandek: "Hech narsaga siqilma ey ko'ngil, na bu dardlar qolguvchi, na bu umr". Har narsa o'tguvchi, har narsa bitguvchidir, shu jumladan vaqt ham, faqatgina bizda qoladigan narsa xotiradir.

**Yashash darbozasi ostonasidan
Zarhal kitob kabi ochilur olam,
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.**

Shoir bu to'rtlik orqali biz hayotga kelishimiz ya'ni onamiz qornidan yer yuziga kelgan kunimizdanoq biz uchun yangi kitob ochilajakligi, undagi sahifalarni biz o'zimiz yaratajakligimizni eslatib o'tgan. Yuqoridagi jumlar orqali zarhal kitob deya yangi sahifani nazarda tutgan bo'lsa shoir, bu olam bizga yangi dunyo bo'lishi biz bu yangi dunyoda o'z kitob sahifalarimiz mualliflari ekanligining guvohi bo'lishimiz

mumkin. She’rda tiriklik, yashashning ko’rki, mazmuni muhabbat hamda mehnat deyilishi ham bejizga emas. Chunki inson bu hayotda muhabbatsiz, mehirsiz yashab, atrofga nafrat urug’larini sohib yashagan inson yashamagan bilan tengdir. Bejizga shoir tiriklik mazmuni deya keltirmagan mehr, muhabbat tuyg’ularini. Vatanga muhabbat, onaga muhabbat, hayotga muhabbat- butun borlig’imiz, hayotimiz aslida bu tuyg’u bilan chambarchas bog’liqdir. Shu bilan birgalikda mehnat qilish, o’z mehnati orqali jamiyatga foydali bo’lish ham aslida hayotimizni go’zallashtirish sari bir qadamimizdir. Shoir bejizga mehnat hamda muhabbatni birgalikda keltirmagan. Muhabbat ila mehnat qilsak, har bir qilgan ishimiz go’zal san’at misoli umr dagtarimiz sahifalarini bezaydi. Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram. Vaqt - oliy hakam deya bejizga aytilmagan. Vaqt o’tishi mumkin, ammo biz qilgan ishlar, yaxshi-yomon munisabatlar insonlar xotirasida yashaydi. Shoir yuqoridagi jumla orqali biz o’tishimiz mumkin, ammo, fursat- vaqt deya atalmish oliy hakam bizni aziz mukarram qiladi inson xotirasi, yodi orqali deyishni maqsad qilgan bo’lsa bejizga emas.

**G’alaba amri-la mag’lub nemisning
Generali qo’l qo’ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal’un imzoda odamlar o’qir
Million yil fashistning umriga la’nat.**

Bilamizki, G’afur G’ulom jahon urushlari davrida yashagan. Urushning dardi, azobi, alamini tuygan shoir. 2- jahon urushida nemis xalqi mag’lubiyatga uchraydi hamda ushbu mag’lubiyat uchun chekilgan imzo uchun esa 3 sekund kifoya. Ammo shu 3 sekundlik imzoda qanchadan – qancha millionlab odamlarning azobi, dardlari yashirin. Bu jumlar orqali G’afur G’ulom xalqlar, elatlarni urush domiga tushmaslikka undaydi. Jahon urushini boshlagan xalq nemislar hamda mag’lublar ham ularning o’zi. Yuqoridagi jumlar orqali shu to’rt qatorlik she’rda urushni qoralash, urush davrininng azoblari, yetim qolgan bolalar, farzandsiz qolgan onalar fig’onlari yashirin desak adashmaymiz. Endi ular fashistning umrini la’natlab o’tishadi.

**Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz insonlardan so’raydi qadrin.
Fursat g’animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog’idir umr daftarin.**

Bu jumla asrlar oshar, avlodlar almashar, kitobxonlar ham o’zgarar, ammo yuqoridagi jumla insonlar ongi, xotirasida umr daftarin eng ezgu ishlar bilan bezash sari buyuk chaqiriq bo’lib qolaveradi. Shoir she’rining eng mashhur qismi desak adashmaymiz ushbu jumlaning. Aziz asrimizning aziz onlari- 2 ta jahon urushini ko’rgan

asr, XX asr insoniyat tarixida tub burilish yasagan, ko'plab insonlarga hayot qadrini, vaqtning qiymatini o'rgatgan asr deyishimiz mumkin. Bekorga shoir aziz insonlardan so'raydi qadrin deya keltirmagan yuqoridagi jumlada. Chunki bu asrda insonlar vaqt qadrini bilmay, uni jahon urushlariga sovurishdi. Oqibatda millionlab insonlar urush qurboniga aylanishdi. Ularning orasida begunoh bolalar, yosh yigitlar, farzandsiz qolgan onalar borligi achinarli albatta. Keyingi jumlalarda shoir vaqtning tez o'tib ketguvchi ekanligini, uni besamar sarflamaslik kerakligini yana bir bor aytib o'tadi, umr daftarimiz sahifalarini endi yaxshi ishlar, ezgu maqsadlar bilan to'ldirishga da'vat etadi deyish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, vaqt o'tar, umr o'tar, ammo, biz qilgan ezgu amallar shunchaki o'tib ketmaydi, ular umr daftarimizni bezabgina qolmasdan, ko'plab insonlar xotirasida abadiy yashaydi.

**Hayot sharobidan bir qultum yutay
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.**

Yuqoridagi jumlar bejizga she'rning tugashi, nihoyasi sifatida tanlanmagan. Hayot sharobidan bir qultum yutay deya shoir bu hayotda harakat qilib ko'rmagan, balki erishmagan maqsadlari sari qadam tashlab ko'rishni aytgandir. Shuningdek, she'rning keying jumlasida hayotimizning har bir daqiqasi, soniyasi g'animatligiga eslatma qiladi. Ya'ni hayot qisqa- unda yashamoq kerak, shunchaki hayol surmoq emas. Yashashni his qilish kerak, buyuk maqsadlar qo'yish, ular sari odim qadamlar tashlash kerak. Zero, vaqt o'tajak hamda harakatlar natija berajak. Shoir she'rning so'nggi jumalari orqali quyoshning falakda kezib yurishi misoli sifatida vaqtning o'tishini keltirgan. Chunki quyosh bitta, u o'zgarmaydi hamda u yerda hayot boshlanganidan to hozirgacha qanchadan qancha insonlarni o'z nuri ila isitib kelmoqda. She'rning yakunlanishida G'afur G'ulom bejizga umrimiz boqiy deya bitmagan. Chunki vaqtlar o'tar, umrl o'tar, ammo, G'afur G'ulom xotirasi, yodi uning she'rlarida, asarlarida mangu yashaydi hamda kitobxonlar uchun vaqt qadriga yetishga da'vat bo'lib davom etaveradi. Har kim umri davomida hayot daftarini turli-tuman sahifalar bilan bezab boraveradi. Ularning yodi, xotirasi esa ular qilgan ezgu amallarida barhayot bo'ladi hamda xotiralarda muxrlanadi.